

лиги эҳтимоли шунчалик юқори бўлади.

Аҳамиятли фаолият бўйича қарор кўпчиликнинг овози билан қабул қилинадиган ҳолатларда ва овоз бериш ҳуқуқига эга бўлган (ёки овоз бериш ҳуқуқига эга бўлган гуруҳга) бошқа бирор кимга нисбатан инвесторга сезиларли даражада кўпроқ овоз бериш ҳуқуқи тегишли бўлганда ҳамда қолган акциялар кўп сонли майда акциядорларга тегишли бўлган вазиятда, ушбу омиллар инвесторда ваколатларнинг мавжуд-

лиги ҳақидаги хулосага келиш учун етарли бўлиши мумкин (ва шу жумладан, назорат ҳам – бундай ҳолатда амалдаги назорат ҳақида сўз бормоқда). Агар овоз бериш ҳуқуқлари ва мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқларининг ярмидан камига эгаллик қиладиган инвесторда назоратнинг мавжудлиги аниқ аён бўлмаса, назоратни аниқлашда барча мавжуд омилларни ҳисобга олиш лозим.

#### Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишининг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. *International Financial Reporting and Analysis, 4-Edition.* D.Alexander, A.Britton, A.Jorissen. 2009. P. 17.
3. *Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective.* /Roger H.Hermanson, James Don Edwards, Michael W.Maher. 6 th ed., Irwin, Printed in the USA, 2009. P. 17.
4. *Насреддинов С.С. Консолидациялаштирилган молиявий ҳисобот тузишининг назарий ва услубий масалалари (“Дори-дармон” давлат акционерлик уюмлари мисолида).* Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т., 2004. – 22 б.
5. *Хўжабеков Н.Б. Бизнесни бирлаштиришда консолидациялашган молиявий ҳисоботларни такомиллаштириш.* Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т., 2009. – 22 б.
6. *Модеров С.В. Совместимая финансовая отчетность: логика и техника построения: дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.12).* – СПб., 2013. С.13.
7. *International Financial Reporting Standard 10 (IFRS 10). “Consolidated Financial Statements”.* / International Accounting Standards Board. – London, 2011. А-Б-банди.
8. *Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар тўплами.* <http://www.accaglobal.com>
9. *Соколов Я.В. Судьба международных стандартов финансовой отчетности в России.* / Я.В.Соколов. // Финансы и бизнес. 2005. № 1. С. 72.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ4611-сонли қарори. // Халқ сўзи. 2020 йил.
11. *Ковалев В.В., Ковалев Вит.В. Анализ баланса. 3-е изд., перераб. и доп.* – М.: Проспект, 2016. – 317 с.



[https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss5/a40](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a40)

## XALQ TA'LIMI TIZIMI MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING SARFLANISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

*Narbekova Gulruh Davronbayevna*  
Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

**Аннотация.** Ушбу мақолда халқ та'лими тизими муассасаларида byudjetdan tashqari mablag'larni sarflash yo'nalishlarini to'g'ri tashkil etish hamda ularning hisobini yuritish bayon qilingan. Xalq ta'limi tizimi muassasalarida pul mablag'larini sarflash bilan bog'liq muammolarni o'rganish va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar yuzasidan tahliliy axborotlarni shakllantirishda buxgalteriya axborotlaridan foydalanildi. Bu esa o'z navbatida, xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ularning sarflanishi bilan bog'liq uslubiy asoslarni tadqiq etish hamda mavjud muammoli holatlarni aniqlab, ularning yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

**Калит со'злар:** byudjetdan tashqari jamg'arma, daromad, haqiqiy xarajatlar, kassa xarajatlari, pul mablag'lari, tahliliy axborotlar.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА РАСХОДОВ ВНЕБЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В ОБЩЕСТВЕННЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

*Нарбекова Гулрух Давронбаевна*  
Независимый исследователь,  
Ташкентский финансовый институт

**Аннотация.** В данной статье описывается правильная организация и учет внебюджетных расходов в учреждениях системы народного образования. Бухгалтерская информация использована для изучения проблем, связанных с расходованием средств в учреждениях системы народного образования, и формирования аналитической информации о расходовании внебюджетных средств. Это, в свою очередь, требует исследования методологических основ, связанных с расчетом внебюджетных средств и их расходованием в учреждениях системы народного образования, а также выявлением существующих проблемных ситуаций и выработкой предложений по их решению.

**Ключевые слова:** внебюджетная экономия, доход, фактические затраты, денежные затраты, денежные средства, аналитическая информация.

## IMPROVING THE ACCOUNT OF EXPENDITURE OF EXTRA-BUDGET FUNDS IN PUBLIC EDUCATION SYSTEM INSTITUTIONS

*Narbekova Gulrukh Davranbaevna -  
Independent Researcher,  
Tashkent Financial Institute*

**Abstract.** This article describes the proper organization and accounting of extra-budgetary spending in institutions of the public education system. Accounting information was used to study the problems related to the spending of funds in institutions of the public education system and to form analytical information on expenditures on extra-budgetary funds. This, in turn, requires the research of methodological bases related to the calculation of extra-budgetary funds and their spending in institutions of the public education system, as well as the identification of existing problematic situations and the development of proposals for their solution.

**Key words:** non-budgetary savings, income, actual costs, cash costs, cash, analytical information.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda eng asosiy masala byudjet tashkilotlarida byudjetdan moliyalashtirishni qisqartirish, byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish orqali qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini yaratishdir. Ayrim xarajatlarni moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalaniladi, ya'ni bular davlat byudjeti mablag'lari emas, balki boshqa manbalar hisobidan tashkil etiladigan mablag'lardir. Ayni vaqtda mamlakatimizda 10764 ta xalq ta'limi tizimi muassasalari mavjud bo'lib, 2022-yilda ularni moliyalashtirish maqsadida Davlat byudjetidan 30823,4 mlrd. so'm mablag' yo'naltirildi va bundan 2021-yilga nisbatan umumiy o'rta ta'lim xarajatlari 1,18 barobarga ortganligini ko'rishimiz mumkin [1].

Hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda, xalq ta'limi tizimi muassasalarida faoliyat turiga xos mahsulot(ish,xizmat)lar realizatsiyasi tushumini, daromadlar va xarajatlar va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni amaliyotga qo'llashni takomillashtirish zarur masalalardan hisoblanadi. Xalq ta'limi tizimi muassasalari faoliyat sohalari va yo'nalishlaridan kelib chiqib, byudjetdan tashqari mablag'lar shakllantiriladi.

Byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Ushbu qarorga muvofiq byudjetdan tashqari mablag'lar kreditorlik qarzlarini tugatish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ko'pi bilan 25 foiz byudjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi [2].

Xalq ta'limi tizimi muassasalarida 243, 343-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi va "Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra byudjetdan tashqari mablag'lar tushumi

shakllantiriladi va ular hisobiga xarajatlar amalga oshiriladi [3], [4].

Bugungi kunda byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, ushbu pul mablag'larining qonunchilikda belgilangan maqsadlarda sarflanish tartiblari, ularning hisobini to'g'ri yuritish hamda nazoratini amalga oshirish bo'yicha mavjud muammolarni o'rganish hamda takomillashtirish muhim hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi sharoitda umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish uchun xalq ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari mablag'larni sarflashda mustaqilligini ta'minlash zarur. Byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishda aynan hissa qo'shayotgan pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy-texnik baza bilan ta'minlashning imkoniyatini kengaytirish lozim. Shuningdek, ularning o'zlari ishlab topgan pul mablag'larini sarflash imkoniyatlarini soddalashtirish va qulayliklar yaratilishi zarur. Pul mablag'larining sarflanishi borasida ko'pgina iqtisodchi olimlarimiz o'z ilmiy qarashlarini bayon etgan. Xususan, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.S.Bakaybayeva, K.Sh.Ibragimov, S.U.Mehmonov, A.A.Ostonokulovning dissertatsiya va monografiyalarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi, pul mablag'larining sarflanishi va nazorati ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [5].

Xususan, A.A.Ostonokulovning o'z ilmiy ishlarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, sarflash yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tushgan mablag'lar belgilangan tartibda tasdiqlangan daromad va xarajatlar smetasi doirasida barcha xarajat guruhlarini moliyalashtirishga sarflanishi ta'kidlab o'tilgan [6].

Shu bilan birgalikda, V.Xudoyberdiyev byudjetdan tashqari mablag'larning sarflanishi borasida hali mavjud imkoniyatlardan foydalanilmayotganligi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltiriladigan mablag'lar ulushini ko'paytirish byudjet tashkilotlari xodimlarining moddiy manfaatlarini oshirishiga olib kelishini ta'kidlab o'tgan [7].

O.S.Qarshiboyev xarajatlarning har birini chuqur tahlil etish, ularning ustidan doimiy nazoratni

o'rnatish, ortiqcha va maqsadsiz sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymaslik buxgalteriya hisobining eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan [8].

Byudjet hisobi va hisobotining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va uni takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Shu qatorda E.U.Abdiqodirova, M.Rahimova, I.Arabayeva tomonidan byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag' topishda va uning sarflanishida mustaqil bo'lish hamda oshkoralik va nazorat qilishni ta'minlash zarur, degan xulosaga kelingan [9].

Shu qatorda O.G.Lamovskayaning ilmiy tadqiqot ishlarida byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning sarflanishi va nazorat qilish bo'yicha muammolar ko'rsatilgan hamda mablag'ning sarflanishi va nazoratni amalga oshirish bo'yicha metodologik tavsiyalar berilgan [10].

Richard Allen va Dimitar Radev: "Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa usulida amalga oshirilishi mablag'larni samarali va maqsadli sarflash hamda ularning nazoratini olib borishga yordam beradi", – deb ta'kidlaganlar [11].

Tatyana Veinbender tomonidan byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari byudjetdan tashqari mablag'larning manbalari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda byudjetdan tashqari mablag'lar tushumi hamda ularning hisobiga xarajatlarining byudjet tasnifi asosida aks ettirilishi ko'rsatib o'tilgan [12].

Olimlarning izlanishlari aynan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga bag'ishlangan, ammo xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi batafsil o'rganilmagan. Hozirda yoshlarning ta'limga bo'lgan ehtiyojining ortishi, xalq ta'limi tizimida infratuzilmani yaxshilash uchun ham mazkur mavzuda izlanish olib borish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini tashkil etish va mablag'larni sarflashning o'ziga xos jihatlari, normativ-huquqiy hujjatlar talablari va byudjet hisobi standartlari talablarini hisobga olgan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash va boshqa bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bo'yicha sarflarni qonun hujjatlariga, tashkilotning qonun hujjatlarida belgilangan byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetalari hamda xarajatlar iqtisodiy tasnifi bo'yicha amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, avvalo, vaqtincha mehnat-

ga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga 75 foizi, byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga 25 foizi sarflanishi belgilab qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari mablag' topishga undash va yaxshi ish natijalarini rag'batlantirish uchun byudjet tashkilotlari 2023-yil 1-yanvargacha barcha daromadlari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabr-dagi 414-sonli qarori bilan belgilangan) yuzasidan barcha soliqlar va yig'imlardan, shuningdek, davlat maqsadli fondlariga majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod etilgan. Byudjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash) quyidagi xarajatlar negizida amalga oshiriladi:

- I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar.
- II. Ish haqiga qo'shimchalar.
- III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq).
- IV. Boshqa xarajatlar.

Xalq ta'limi tizimi muassasalarida 2021-yil 27-aprel 243-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga ko'ra byudjetdan tashqari mablag'laridan tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bino va inshootlarni, ilmiy laboratoriyalarni texnik shartlar asosida joriy ta'mirlash va jihozlash, xalqaro ilmiy axborot bazalari va kutubxona resurslariga ulanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, xodimlarni yetakchi milliy va jahonda eng yuqori mingtalik reytingga kiruvchi yoki yo'nalishlar bo'yicha jahonda eng yuqori mingtalik reytingga kiruvchi yoxud yo'nalishlar bo'yicha jahonda eng yuqori yuztalik reytingga kiruvchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalariga qayta tayyorlov, malaka oshirish va amaliyotga yuborish orqali kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro tan olingan ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot natijalarini nashr qilish uchun sarf etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan jamg'armaga ko'rsatilgan homiylik xayriyalari, agar homiy bilan aniq maqsadlar uchun yo'naltirilishi kelishilmagan bo'lsa, muassasa va tashkilot rahbari va buxgalteri tomonidan xarajatlar rejasiga o'zgartirish tayyorlanib, umumta'lim muassasasi uchun Kuzatuv kengashi roziligi bilan boshqa xalq ta'lim muassasasi va tashkilotlar uchun rahbar tomonidan xalq ta'limi muassasasi va tashkiloti xarajatlariga sarflanadi. Shuningdek, "Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 343-sonli nizomga ko'ra pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan tushgan mablag'lar xarajatlar turi bo'yicha shartnoma asosida pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish

## MOLIYA VA SOLIQLAR

maqsadida jalb etilgan o'qituvchilarga to'lanadigan to'lovlar, soliq va yig'imlar, mashg'ulotlarni tashkil etish uchun moddiy-texnik ta'minot xarajatlari qoplangandan so'ng maktabning rahbar va pedagog xodimlarini moddiy rag'batlantirishga va boshqa xarajatlarga Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda yo'naltiriladi. Jamg'arma tushumlari (maqsadli homiylik xayriyalaridan tashqari) quyidagi tartibda yo'naltiriladi:

respublika darajasidagi muassasa va tashkilotlar tushumlarining besh foizi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasiga;

hududiy xalq ta'limi boshqarmalarining to'g'ridan to'g'ri bo'ysunuvidagi muassasa va tashkilotlar tushumlarining besh foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining jamg'armalariga;

tuman (shahar) darajasidagi muassasa va tashkilotlar tushumlarining ikki foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari jamg'armalariga, uch foizi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari huzuridagi

Xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armalariga sarflanadi.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bular byudjetdan tashqari mablag'larni foydalanishda kassa usulida amalga oshirish, byudjetdan tashqari mablag'larni manbalari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettirish, byudjetdan tashqari mablag'lar tushumi hamda ularning hisobiga xarajatlarni byudjet tasnifi asosida aks ettirilishidir. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisob varag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotning hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Byudjet tashkilotlari xarajatlarining to'lovi va uning kassa ijrosi g'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa usulida amalga oshirilishi mablag'larni samarali va maqsadli sarflash hamda ularning nazoratini olib borishga yordam beradi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limida rivojlantirish jamg'armasida shakllangan daromadlarga nisbatan amalga oshirilgan xarajatlarni 1-jadvalda ko'rib o'tamiz.

**1-jadval**

### Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limining byudjetdan tashqari mablag'larining sarflanishi

Xarajat nomi	2018-yil			2019-yil			2020-yil		2021-yil		
	kassa xarajat	haqiqiy xarajat	farqi	kassa xarajat	haqiqiy xarajat	farqi	kassa xarajat	haqiqiy xarajat	kassa xarajat	haqiqiy xarajat	farqi
Jami:	392452	436703	-44251	454584	460356	-5772	-		62374	429622	-193552
I guruh. "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar"	62760	70 527	-7766	110990	108513	-2476			217626	217626	
Asosiy ish haqi	62760	70527	-7766	110990	108513	-2476			217626	217626	
II guruh. "Ish haqi"	15690	17631	-1941	27747	27128	619			39 806	39806	
Yagona ijtimoiy to'lov	15690	17631	-1941	27747	27128				39 806	39 806	
IV guruh. "Boshqa xarajatlar"	314002	348545	-34543	315846	324714	-8867			365741	172189	193552
Tovar va xizmatlar xarajatlari	200573	186461	14111								
Elektr	2269	208	2060	87655	87655				104025	104025	
Issiq suv va issiqlik energiyasi	7911		7911								
Sovuq suv va kanalizatsiya	15658	2298	13360	1 064	11756	6308			19 375	19375	
Chiqindilarni tozalash va tozalash xizmatlari, shuningdek, energiya va boshqa resurslarni sotib olish (benzin va boshqa yoqilg'i-moylash materiallaridan tashqari)	6258		6258	68006		68006					
TMZ (qog'ozdan tashqari)	47041	47045	- 4	138613	138635	-22			22 168	22169	-0,80
Kiyim, poyabzal va choyshab	53247	53247									
O'qish xarajatlari									12 327	11050	1277
Dori vositalari va tibbiy buyumlar	600		600								
Tovar va xizmatlarni sotib olish uchun boshqa xarajatlar	53284		53284								
Asosiy vositalarni sotib olish	48460	92531	-44071	71512	86666	-15154			193553	43964	149589
Kutubxona fondi	452	712	-260								
Boshqa xarajatlar	600	749	-149						26 619	26 619	

*Manba: Uchtepa tumani ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Jadvalda Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limi rivojlantirish jamg'armasi to'rt yillik ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, 2018-yil I guruh – "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar" kassa xarajatiga nisbatan haqiqiy xarajat kreditor qarzdorlik 7766 ming so'mga ortgan, 2019-yil I guruh – "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar" kassa xarajatiga nisbatan haqiqiy xarajat kreditor qarzdorlik 2476 ming so'mga ortgan. II guruh xarajatlari 2018-yilda kassa xarajati haqiqiy xarajatlarga nisbatan kreditor qarzdorlik 1941 ming so'mni tashkil etgan. 2019-yilda kassa xarajati haqiqiy xarajatlarga nisbatan 619 ming so'mga ortgan. Kommunal to'lovlarining kassa xarajatlariga nisbatan haqiqiy xarajat kreditor qarzdorlik 23331 ming so'mga ko'p, 2019-yilda kassa xarajatlari oldingi kreditorlik qarzlarni qop-

lash uchun haqiqiy xarajatga nisbatan 57314 ming so'mga ortgan. Tovar-moddiy zaxiralar 2018-yilda kassa xarajatlari TMZlarning ombordagi qoldig'i hisobiga haqiqiy xarajatga nisbatan 14111 ming so'mga ko'p. Tovar-moddiy zaxiralar 2019-yilda kassa xarajatlari haqiqiy xarajatga nisbatan TMZlarning qoldiq qiymati hisobiga 22 ming so'mga kamaygan. Asosiy vositalarning sof qiymati 2018-yilda 44071 so'mga kamayganligi, 2019-yilda 15154 so'mga kamayganligi, 2021-yilda 149588 ming so'mga kamayishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot obyekti hisoblangan Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limida rivojlantirish jamg'armasi xarajatlarining foizdagi ulushini 2-jadvalda ko'rib o'tamiz.

2-jadval

Uchtepa tumani XTB rivojlantirish jamg'armasi xarajatlarining tarkibiy tuzilishi (foiz ulushida)


Xarajat nomi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
I guruh. "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar"	16 %	24 %		51 %
II guruh. "Ish haqi"	4 %	6 %		9 %
IV guruh. "Boshqa xarajatlar"	80 %	70 %		40 %
<b>Jami:</b>	<b>100 %</b>	<b>100 %</b>		<b>100 %</b>

Manba: Uchtepa tumani ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Uchtepa tumani Xalq ta'limi bo'limi ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-yilda jamg'arma mablag'ining 80 foizidan ko'proq ulushi IV guruh xarajatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Xodimlarni moddiy rag'batlantirish 20 foiz miqdoridagina amalga oshirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 2018-yil davomida xarajatlarning sarflanishi 414-sonli qaror asosida 75/25 nisbatda to'langan. 2019-yilda IV guruh xarajatlar ulushi 70 foiz, I guruh xarajatlar ulushi 24 foizga to'g'ri kelgan. 2020-yilda pandemiya sababli rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanilmagan. 2021-yilga kelib, I guruh xarajatlar ulushi 51 foizga yetgan bo'lsa, IV guruh xarajatlari uchun 40 foiz mablag' sarflanganligini ko'ramiz. 2021-

yilda xodimlarni ijtimoiy himoya va moddiy rag'batlantirish uchun belgilangan nisbat yuqori, ya'ni 2018-yilga nisbatan I guruh xarajatlari 30 foiz ko'proq sarf etilgan. Bundan ma'lumki, mablag'larning sarflanishi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 343-sonli nizom asosida to'langanligini ko'ramiz.

Shuningdek, qo'shimcha ravishda yana bir tadqiqot obyekti hisoblangan Shayxontohur tumani Xalq ta'limi bo'limida rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining guruh xarajatlari bo'yicha sarflanishini 1-rasmda ko'ramiz.



1-rasm. Shayxontohur tumani Xalq ta'limi bo'limi rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining guruh xarajatlari bo'yicha sarflanishi

Manba: Shayxontohur tumani ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda maxsus maktab jamg'arma mablag'larining I guruh xarajatlari 1550 ming so'm, II guruh xarajatlari 502 ming so'm, IV guruh xarajatlari 390790 ming so'mni tashkil etgan. 2019-yilda I guruh xarajatlari 25957 ming so'm, II guruh xarajatlari 6489 ming so'm, IV guruh xarajatlari 380753 ming so'm bo'lib, 2020-yilda bu ko'rsatkichlar - I guruh xarajatlari 28888 ming so'm, II guruh xarajatlari 7222 ming so'm, IV guruh xarajatlari 492105 ming so'mga to'g'ri kelgan. 2021-yilda I guruh xarajatlari 131832 ming so'm, II guruh xarajatlari 32958 ming so'm, IV guruh xarajatlari 504493 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, 4 yil davomida xarajatlarning sarflanishi 414-sonli qaror asosida 75/25 nisbatda to'langan.

Xalq ta'limi bo'limida 4 yil mobaynida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari faqatgina IV guruh xarajatlariga sarflangan, ya'ni 2018-yilda 11343 ming so'm, 2019-yilda 22263 ming so'm, 2020-yilda 10629 ming so'm, 2021-yilda 4209 ming so'mni tashkil etgan.

Barkamol avlod bolalar markazida 2018-yilda I va II guruh xarajatlari kuzatilmagan, 100 foiz mablag'lar IV guruh xarajatlari uchun foydalanilgan.

2019-yilda I guruh xarajatlariga 5991 ming so'm, II guruh xarajatlariga 1497 ming so'm, IV guruh xarajatlariga 15546 ming so'm sarflangan. 2020-yilda I guruh xarajatlari 27490 ming so'm, II guruh xarajatlari 6873 ming so'm, IV guruh xarajatlari 9047 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, jami mablag'ning 63 foiziga to'g'ri keladi. 2021-yilda I guruh xarajatlariga 31078 ming so'm, II guruh xarajatlariga 7770 ming so'm, IV guruh xarajatlariga 1 mln. so'm sarflangan, bu jami mablag'ning 78 foizini tashkil etadi. 4 yillik ma'lumotlar asosida I guruh xarajatlari ortganligi, IV guruh xarajatlari kamayganligi guvohi bo'lamiz. "Barkamol avlod bolalar markazida bolalar o'qiganligi uchun ot-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq xodimlarni moddiy rag'batlantirish 40 foizgacha ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda nizom talablarida ko'rsatilgan chegaradan ortiq mablag' xodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflangan.

Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning sarflanishini buxgalteriyada hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3-jadval

Byudjet tashkilotlari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha xarajatlar hisobining buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi [11]

T/r	Operatsiyalar mazmuni	Buxgalteriya balansi	
		Debet	Kredit
1.	Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqaning to'lab berilishi	171-Ijtimoiy nafaqalar bo'yicha ishchilar bilan hisob-kitoblar, kasallik varaqasi	112-Byudjet tashkilotining rivojlanish jamg'armasi mablag'lari
2.	Kreditorlik qarzlarning to'lanishi	159-Turli qarzdorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar	112- Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari
3.	Moddiy-texnik baza sotib olish	159-Turli qarzdorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar	112-Byudjet tashkilotining rivojlanish jamg'armasi mablag'lari
4.	Xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'lovlari uchun	173-Ish haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	262-Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasidan olinadigan daromadlar

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan jihatlar xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish amaliyotida ayrim uslubiy muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, xarajatlarni amalga oshirishda smetalarning xarajat moddalari bilan buxgalteriya schyotlari ko'rsatkichlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlashning murakkabligi va shu kabi boshqa holatlarni keltirish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etishga bo'lgan harakati uning asosiy faoliyati, muassasaning missiyasiga putur yetkazmasligi kerak. Shuni unutmash lozimki, xalq ta'limi tizimi muassasasi tijorat tashkiloti emas, shuning uchun unda marketing masalalarini jamiyatning talab-ehtijolaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish za-

rur hamda davlat tomonidan moliyalashtirishning chegaralanganligini, bugungi kunda ortib borayotgan ehtiyojlarni faqatgina davlat mablag'lari hisobiga qoplashning obyektiv tarzda imkoni yo'qligini anglab yetishimiz lozim. Xalq ta'limi tizimi muassasalarida shakllangan byudjetdan tashqari mablag'lar erkin va mustaqil ravishda tasarruf etilsagina, byudjetdan tashqari mablag'larning o'sishini ko'rishimiz mumkin.

Xalq ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq xalq ta'limi tizimi muassasalarida sarflanish hisobini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish zarur:

byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larga doir qonun hujjatlarini ko'rib chiqish, ancha yil

oldin qabul qilingan hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, zamon talablariga, xalqaro tajribalarga mos keluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

byudjet tashkilotlariga berilgan imtiyozlar va sarfiga aniqlik kiritilishi, ijtimoiy himoya va moddiy rag'batlantirishning foiz stavkasini oshirish yoki tushgan tushumdan emas, sarflangan mablag'ning miqdoridan 25 foizini to'lash;

xalq ta'limi tizimi muassasalarida pulli xizmatlardan ota-onalarning oylik to'lov badal pullarini o'z vaqtida to'lashi uchun nizom talablariga muvofiq aniq muddat ko'rsatilgan, lekin muddati o'tgan to'lovlar uchun buxgalteriya o'tkazmalarida hisobga olinishi qay tartibda ekanligi, ularning nazorati kim tomonidan amalga oshirilishi, aniq bir tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishi;

xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari sarflanishi bo'yicha nizom talablariga muvofiq chegara belgilangan, ya'ni shu mablag'lardan ish haqiga, yagona ijtimoiy to'lovlariga va boshqa to'lovlarga sarflanishi aynan nizom talablariga amal qilinayotganligi nazorati tegishli moliya organlari tomonidan yuritilishi;

byudjetdan tashqari mablag'lar shakllangan muassasalarda mablag'larning sarfi bo'yicha kelib chiqayotgan muammolar, jamg'arma mablag'larini umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbari tomonidan erkin yo'naltirish huquqiga ega bo'lishi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, xalq ta'limi tizimi muassasalarida shakllangan byudjetdan tashqari mablag'lar erkin va mustaqil ravishda tasarruf etilsagina, byudjetdan tashqari mablag'larning o'sishini ko'rishimiz mumkin.

#### Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fuqarolar uchun byudjet. 2022-yil loyihasi. – T., 2021-yil. ([www.openbudget.com](http://www.openbudget.com))
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori (1999-yil 3-sentabr, 414-son).
3. "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom (2021-yil 27-aprel, 243-son).
4. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom (2019-yil 22-aprel, 343-son).
5. Bakaybayeva A.S. O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2020. – 52 b.; Ibragimov K.Sh. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). Iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. – T., 2018. – 54 b.; Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2016.
6. Azamat Ostonokulov. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 7, July 2021: 4857-4867. SCOPUS.
7. Xudayberdiyev V. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari tushumlarning shakllanishi va ishlatilish tartibi. // Iqtisod va moliya. 2015-yil, 12-son.
8. Qarshiboyev O.S. Oliy ta'lim muassasalarining rivojlantirish jamg'armasi xarajatlar hisobi. // "Iqtisod va moliya" jurnali. 2011-yil, 11-son.
9. Абдыкадырова Э.У., Рахимова М., Арабаева И. Финансовый учет специальных средств в бюджетных учреждениях. 25.11.17 Принятая публикации Accepted for publication 25.11.17 Опубликована Published 30.11.17 [www.e-koncept.ru](http://www.e-koncept.ru) © Концепт, научно-методический электронный журнал, 2017 © Абдыкадырова Э. У., 2017 577234312018314
10. Ламовская О.Г. Формирование и развитие системы учета и контроля внебюджетных средств в государственных сельскохозяйственных вузах. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Воронеж, 2004.
11. Richard Allen and Dimitar Radev. Managing and Controlling Extrabudgetary Funds. Published in OECD Journal on Budgeting, Volume 6 Issue 4, 2006; [www.oecd.org/gov/budget/journal](http://www.oecd.org/gov/budget/journal).
12. Tatiana VEINBENDER Vol. 38 (Nº 43) Año 2017. Pág. 33 Reforming Extra-Budgetary Funds in the Russian Federation Reforma de los fondos extrapresupuestarios en la Federación de Rusia1 Recibido: 05/07/2017 • Aprobado: 28/06/2017 Espacios.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma (2010-yil 21-dekabr, 2169-son).
14. "Barkamol avlod bolalar markazida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom (2011-yil 23-sentabr, 2267-son).
15. Исаев Ф. Солиқ таҳлилини ўрганиш зарурати. 2022. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/720>
16. Курбанов З., Исаев Ф. Солиқ ҳисоби ва солиқ ҳисоботининг баъзи масалалари. // Экономика и образование. 2022. Т. 23. №. 4. С. 190-196.